

## MENING MAHALLAM-MENING FAXRIM

Xolmirzayeva Aziza Jumanazar qizi

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti

“Raqamli iqtisodiyot” fakulteti RI-41 guruhi talabasi.

+998995380615 [azizaholmirzaeva4@gmail.com](mailto:azizaholmirzaeva4@gmail.com)

Xashimova D.P.

Ilmiy raxbar. Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

“Raqamli iqtisodiyot” fakulteti dekan o’rinbo’sari, dotsent.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11521420>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “Inoqobod” mahallasi haqida keng yoritib berilgan va ushbu mahallada olib borilayotgan ishlar ham sanab o’tilgan.

**Kalit so’zlar:** Mahalla, Markaziy Osiyo, Toshkent shahri, “Inoqobod”, Konstitutsiya.

## MY NEIGHBORHOOD IS MY PRIDE

**Abstract.** In this article, the neighborhood of “Inokabad” is described in detail and the works carried out in this neighborhood are also listed.

**Key words:** Neighborhood, Central Asia, Tashkent city, “Inokabad”, Constitution.

## МОЙ РАЙОН – МОЯ ГОРДОСТЬ

**Аннотация.** В данной статье широко освещен микрорайон «Инокабад», а также перечислены работы, проводимые в этом микрорайоне.

**Ключевые слова:** Соседство, Средняя Азия, город Ташкент, «Инокабад», Конституция.

Inson qadri yuksalgan millat,  
Matonatli farzandlar bisyor,  
Mahallada jonkuyar ham ibrat,  
Rahmat go‘zal mehmondo‘st diyor.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli mamalakatimizda xalqchil boshqaruv tizimi, mahalla qaytadan kashf etildi. Azaliy ma’naviyatimiz va milliy qadriyatlarimiz maskani bo‘lgan mahalla bugun kuchli tarbiya o‘chog‘i sifatida milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasi bilan boyib, yangilanib jamiyat taraqqiyotiga tobora samarali, xolisona xizmat qiluvchi hayot dorilfununiga aylanib bormoqda.

Zero, mahalla ahli avvalambor, yoshlari qalbini, ongini “G‘oyaga qarshi faqat g‘oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma’rifat bilan bahsga kirisha olish” orqali zabit etishga, ezgu-amallarga, bunyodkorlikka yo‘naltirishga astoydil bel bog‘lagan.

Mahalla-Sharq tamadduni, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari turmush tarzi, tafakkuri va qadriyatlariga xos bo‘lgan jamiyat hayotini tashkil etadigan an’anaviy ijtimoiy institut. “Mahalla” so‘zi arab tilidan tarjima qilinganda “turar joy”, “lager”, “qo‘nalg‘a” degan ma’nolarni anglatadi. Mahalla, insonning Vatanidir. Ezgulik va ma’naviyat maskani bo‘lmish ona diyorimizning bir go`shasi uchun jonini fido qilgan qanchadan-qancha mard, jasur, tarixiy shaxslarni bilamiz.

Shiroq, To‘maris, Jaloliddin Manguberdi....Ularning qatori yana-da kuchli, yana-da ulug‘ tarixiy shaxslar bilan davom etadi. Zamondoshlarimiz orasida ham o‘z Vatani va o‘z hamyurtlari

osoyishtaligi uchun jonini fido qiladigan yurtdoshlarimiz jasorati va mardona amali barchamiz uchun ibrat hisoblanadi.

Men Toshkent shahri Mirobod tumani “Inoqobod” mahallasida bolaligimdan istiqomat qilib kelyapman. Esimni tanibmanki, mahallamiz yildan-yilga rivojlanib, o’sib, o’z fuqarolariga qo’ldan kelgancha yordam berishdan charchashmayapti. Masalan, 2020 yilda insoniyat boshiga kelgan jiddiy sinov-koronavirus kasalligi va uning xalqimiz turmush tarziga ta’siri haqida to’xtalib o’tar ekanman, xalqimiz bu qiyin kunlardan o’zaro hamjihatlik va birdamlik bilan o’tib keldi.

Saxovatli xalqimizning mehru muhabbatni, himmati qiyin kunlarda barchamizga katta madad bo’ldi. Bu og’ir kunlarda bizning mahallamiz ham qo’l qovushtirib o’tirganlari yo‘q. Ular barcha kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam berib kelishdi. Oziq-ovqat bilan ta’minlashning o’zida chegaralanib qolmay hatto pul bilan ham yordam berishdi va barcha oilalardan xabar olib turishdi.

Albatta, bu barcha qiynalib qolgan oilalar uchun juda katta yordam bo’ldi. Bu qiyinchiliklardan o’tib olganimizdan so’ng ham mahallamiz bu oilalarni shunday tashlab qo’yishmadni, aksincha yordam berishda davom etishyapti. Hozirda mahallamizning asosiy maqsadi aholini kambag’alchilikdan chiqarish bo’lganligi sababli barcha ishsiz insonlarni ish bilan ta’minlab berishdi, 300 dan ortiq temir daftarga kirgan oilalarga har tomonlama yordam berib kelishyapti. Bu oilalarning ichida yolg’iz yashovchilar, ijtimoiy og’ir sharoitga tushib qolganlar, hattoki, uy bilan ta’minlangan oilalar ham yo‘q emas. Mahalla haqida qancha gapirsam arziyi, chunki shu birgina so’z zamirida butun olam ezguliklari, urf-odat va an’analari, qaynoq tafti mujassam. Yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Davlatchiligmiz tarixida birinchi marta mahalla tushunchasi Konstitutsiyamizga kiritilib, uning jamiyat boshqaruvidagi o’rnini va maqomi belgilab qo’yilgan”. Bu maqom hali-haligacha o’z o’rnini saqlab, kundan kunga yuksalib boryapti. Bizning mahallamizning misolida oladigan bo’lsak barcha insonlar ahil va inoq yashashadi, bir-birlariga doim qo’ldan kelgancha yordam berishadi. Bu bilan birgalikda mahallamiz o’z nomini oqlab hamma millatni birdek ko’radi. Mahallamizda qirqdan oshiq millat vakillari istiqomat qilishi inobatga olinib ular uchun barcha tadbirlar rus va o’zbek tillarida o’tkaziladi. Mahallamiz shunchalar e’tiborliki, bizning oilamizni ham eslaridan chiqarishmaydi. Bizning oila ham nogironi bor oila hisoblanib, 29 yoshli bolalikdan nogiron opam bor. Shuni e’tiborga olib mahallamiz ijtimoiy-moddiy yordam berib, nogironlik aravachasi bilan ta’mindadi. 2021-yil dekabr oyida mahallada o’tkazilgan tadbirda onam mahalladagi “Ma’rifatli ayol”, men esa mahalladagi “Odobli qiz” deb e’tirof etildik. Albatta bunday qo’llab-quvvatlash biz kabi fuqarolarga motivatsiya berib, yurtimiz farovonligi yo’lida tinmay o’qib-o’rganib, Vatanimizning gullab-yashnashi, porloq kelajagi uchun, Davlatimizning bizga ko’rsatayotgan g’amxo’rligidan ruhlanib, o’zimizdagi bor kuch-g’ayratni sarflagan holda xizmatga shaymiz. Mahalla yoshlar orasida ham katta ahamiyatga ega. Chunki biz, yurt farzandlarining katta-katta marallarga erishayotganimiz oilamizda, mahallamizda berilayotgan e’tiborning samarasi deb bilaman. Mahallalardagi bizga berilayotgan barcha imkoniyat va shart-sharoitlar eng avvalo, bizning Prezidentimiz qaratayotgan e’tibordandir.

Yildan-yilga mahallaning rivojlanishida Yurtboshimizning hissasi juda katta. Chunki Prezidentimiz qanchadan-qancha mahallalarga o’zi borib, mahalla aholisi bilan muloqot qilib ularning hayoti bilan tanishib chiqyapti. Shu bilan birgalikda Yurtboshimiz kirib kelgan 2022-yilni “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili” deb e’lon qildi.

Bu borada, shuningdek: “Inson qadrini ulug‘lash-yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta’minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla hal qiluvchi o‘rin tutadi. Mahalla tinch bo‘lsa, yurt tinch bo‘ladi. Mahalla obod bo‘lsa, mamlakat obod bo‘ladi. Shu bois, bundan buyon har bir mahallada samarali ish olib borish faoliyatimizning bosh mezoniga aylanadi. Bebaho boyligimiz bo‘lgan tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga alohida e’tibor qaratamiz. 2022-yilda iqtisodiyotimiz tarmoqlari va tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish e’tiborimiz markazida bo‘ladi. Aholi daromadlarini ko‘paytirish, ish haqi, pensiya stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirishga qaratilgan muhim ishlarni davom ettiramiz. Ijtimoiy sohalar, ayniqsa, sog‘liqni saqlash, ta’lim-tarbiya va ilm-fanni rivojlantirishga barcha resurslar jalb etiladi. Muhtaram urush va mehnat faxriyalarini, aziz ayollarimiz hamda yoshlарimizni qo‘llab-quvvatlash, ko‘makka muhtoj insonlarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishga alohida e’tibor beramiz. Yurtimizni yanada obod qilish, zamonaviy uy-joylar, jumladan, barcha hududlarimizda “Yangi O‘zbekiston massivlari”ni qurish asosiy vazifalarimizdan biri bo‘ladi. Ishontirib aytamanki, xalqimizning hayoti yanada farovon va mazmunli bo‘lishi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz”, -degan ifodalarga o‘rin berdi.

Yurtimizdagi islohotlar natijalari, sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar va bunga bizning munosabatimiz, bizning kayfiyatimiz, avvalo, mahallada sezilishi zarur. “...Mahalla-yorug‘ yuzimiz va vijdonimiz ko‘zgusi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi”, axir mahalla bizining hayotimizda juda muhim maskandir. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, mahalla-katta kuch, inson hayotida muhim ahamiyatga ega maskan. Hech bir mubolag‘asiz “Mahallam-bu mening faxrim, ishonchim, kelajagim”, deb ishonch bilan aytta olaman. Men shunday namunali mahallada yashayotganidan faxrlanaman.

## REFERENCES

1. Xoliqova M.: “Mahalla-tariqiy-ijtimoiy tuzilma hamda fuqarolik jamiyatining muhim elementi;
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 31.12.2021 yildagi tabrigi;
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.